

## 7-SINF O'QUVCHILARIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TADQIQOT TAHLILI

**Maxammedova Sarvinoz Ibroximjon qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi*

*ToshDO'TAU 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarda eng muhim ko'nikmalardan biri tinglab tushunish ko'nikmasining mazmuni, ahamiyati hamda uni rivojlantirish zarurati haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida 7-sinf o'quvchilari tanlanib, ularning tinglab tushunish ko'nikmasi bilan bog'liq muammolar aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** ko'nikma va malaka, o'quv topshiriqlari, mashq, audiomatn, o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

**This article** provides readers with the most important the content, importance and need for development of one of the skills, listening comprehension, were discussed. The 7th grade students were selected as the object of the research, and problems related to their listening comprehension skills were identified.

**Keywords:** skills and competencies, learning tasks, exercises, audiotext, developing listening comprehension skills in students.

Boshqa fanlarning o'zlashtirilishi o'quvchining o'z ona tilida yozma matn va og'zaki matnni tushunish, o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda izchil bayon eta olish ko'nikmasi bilan bevosita bog'liq[Azimova,2/5].<sup>1</sup> Bu esa ona tili ta'lumi har qanday

<sup>1</sup>I.Asimova. Ona tili ta'lumida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingistik asosi, global ta'lim va milliy metodika tarqqiyoti, 2019.

bosqichda ta’limning asosida turishini isbotlaydi. O‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan malakalardan biri tinglab tushunish malakasi hisoblanadi.

Nutqiy ko‘nikmalar orasida tinglab tushunish o‘ziga xos muhim komponentni tashkil qiladi. Bugungi kunda ona tili ta’limida mazkur ko‘nikmani rivojlantirishga unchalik ehtiyoj yo‘q degan qarashlar ham bor. Aslida ona tili ta’limida ham chet tilida bo‘lgani kabi tinglab tushunish ko‘nikmasi bo‘lishi kerak. Faqat o‘qitish va baholash mezonlarida o‘ziga xos farqlar bo‘ladi.

Tabiiyki, insonda quyidagi savollar tug‘ilishi mumkin:

- Ona tili ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish qanchalik muhim?
- O‘zi buni shakllantirish zarurmi?
- Bu ko‘nikmani rivojlantirish o‘quvchilarda nimaga xizmat qiladi ?

Tinglab tushunish –muloqot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalardan sanaladi. Tinglab tushunish axborot va fikrlarni qabul qilish, mazmunni tushunish va so‘zlovchiga javob qaytarish jarayonidir. Matnni yoki so‘zni shunchaki eshitish yetarli emas, yaxshi tinglovchi so‘zlovchining noverbal nutq vositalariga ham e’tibor qaratishi kerak.<sup>2</sup>[Kamelia,3]. Olma Iroda Azimova o‘qib tushunish ko‘nikmasiga qaraganda eshitish “...orqali matnni tushunish sekinroq amalga oshadi. Bu matnni o‘qish vaqtida oldingi so‘zlarga qaytish va ularni doimiy nazarda tutib turish imkonи mavjudligi hisobiga ro‘y beradi. Matnni o‘qishda ko‘z harakatining 15% i oldingi so‘zlarga qaytishga sarf bo‘lishi hamda matndagi periferik ma’lumotning hisobga olinishi( ya’ni ko‘z matndagi so‘zlarni ketma-ket qabul qilib borar ekan, ayni vaqtda ma’lum so‘zni qabul qilish bilan birga atrofdagi so‘zlarni ham hisobga oladi. - I.A.) psixologik tajribalarda[Carrol David, 93-94] isbotlangan<sup>3</sup>”, deya keltirib

<sup>2</sup> Developing Listening skills. Studies about languages, 2009.

<sup>3</sup> Carrol David W.Psychology of Language.-California, 1998.-P.93-94.

o‘tadi [Azimova, 32]. Tinglab tushunish uchun beriladigan audiomatnlar turlicha shaklda bo‘lishi mumkin. Masalan: audio, video, podkast, radioeshittirish kabi.

Tinglab tushunish bo‘yicha o‘quvchilarda tadqiqot o‘tkazildi. Bunda 7-sinf o‘quvchilari tadqiqot obyekti sifatida tanlanib, ularning yoshiga mos topshiriqlar berildi. Tinglab tushunishda qanday muammolarga duch kelinishi va nimalarga e’tibor qaratish kerakligini bilish maqsadida tajriba-sinov jarayoni tashkil qilindi. Bu jarayonda o‘quvchilarga video ko‘rinishidagi matn berilib, ularga oid topshiriqlar (test, rasmlar bilan ishslash, kerakli so‘zlarni o‘rniga joylash) taqdim qilindi. **Namuna:** “**Samolyotning xavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomasi**” mavzusida video beriladi(qr-kod).



### Audiomatnni tinglang va testlarni bajaring.



1. Tablo chirog‘i yoqilishi bilan kamarlar taqilsin.  
A.to‘g‘ri                      b.noto‘g‘ri
  
2. Xavfsizlik kamarini yechish uchun qulf qopqog‘ini ko‘tarish shart emas.  
A.to‘g‘ri                      b. noto‘g‘ri
  
3. Avariya holatida qutqarish nimchasi o‘rindiq tagida joylashgan  
A. to‘g‘ri                      b. noto‘g‘ri



### Audiomatnni qayta tinglang va kerakli so‘zlarni joylashtiring.

1. Qo‘l yukingizni \_\_\_\_ yo‘lagiga qo‘ymang.
2. Har bir avariya chiqish yo‘li \_\_\_\_ so‘zi bilan ko‘rsatilgan.
3. Samolyotning sakkizta avariya chiqish yo‘llari havoga to‘ldiriladigan\_\_\_\_ bilan ta’minlangan.
4. Butun uchish davomida \_\_\_\_ ma’n etiladi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, 7-sinf o‘quvchilarida audiomatn va topshiriqlar ustida ishslash yuzasidan xato va kamchiliklar mavjud. Ular jadval holida aks ettirildi (natijalar % ko‘rsatkichida).

t/r	Xato va kamchiliklar	O‘quvchilar soni	Bajara olganlar	Bajara olmaganlar
1	Diqqatni jamlay olmaslik	30	30%	70%
2	Kerakli so‘zlarni xotirada saqlamaslik	30	85%	15%
3	Rasmlar bilan ishslash	30	75%	25%
4	Berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish	30	80%	20%

O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarida 7-sinf o‘quvchilarining audiomatn va unga oid topshiriqlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi qoniqarli ekanligi aniqlandi. Sinfning deyarli 70% o‘quvchilari topshiriqlarni to‘g‘ri bajardi.

Tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda o‘quvchining yoshi, qiziqishlari, qiyinlik darajasini hisobga olgan holda turli uslubdagi matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi bir uslubdagi matnlarni eshitib o‘rgangan bola o‘zga uslubdagi matnni tinglaganda zerikishi, diqqatini jamlay olmasligi, matnning mazmunini anglamasligi, tahlil qilib munosabat bildira olmasligi mumkin. Matn tanlanayotganda yuqoridagi xususiyatlarni hisobga olgan holda matnning turli shakl va turlaridan ( dialogik matn, monologik matn, tasviriy matn, hikoya matni, muhokama matni) hamda turli metod va usullardan foydalanish zarur.

Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish ko‘nikmasi zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, til o‘rganish va muloqotda samarali ishtirok etishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu ko‘nikma nafaqat axborotni to‘g‘ri anglash, balki uni tahlil qilish, fikr bildirish va muhokama yuritishda ham asosiy rol o‘ynaydi. Tinglab tushunishni rivojlantirish uchun o‘quvchilarda muntazam mashqlar, turli kontekstdagi matnlar bilan ishslash, audiovizual manbalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish nafaqat til kompetensiyasini rivojlantiradi, balki umumiy tafakkur va muloqot madaniyatini ham yuksaltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Azimova. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi, global ta’lim va milliy metodika tarqqiyoti,2019.
2. Carrol David W.Psychology of Language.-California, 1998.-P.93-94.
3. Developing Listening skills. Studies about languages, 2009.
4. Melikova E. Chet tilini o‘qitishda tinglab tushunishning o‘rni va uni rivojlantirishning yo‘llari// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar ISSN 2181-1709 (P); 2022, 10-SON.250-B.
5. Davlat ta’lim standartlari.-Toshkent, 2017.